

**KLIMAKTERIK SINDROM VA ARTERIAL GIPERTONIYA FONIDA  
ARITMIYA: XAVF OMILLARINI BAHOLASH****Otaqo'ziyeva Xamroxon Botirjon qizi**

Andijon davlat tibbiyot instituti Terapiya yo'nalishi 1-bosqich magistratura talabasi

[ Xat yozish uchun: E-mail:xamroxonmaxamadjonova@gmail.com

Telefon nomer: +998-90-145-94-42]

**Anatatsiya:** Klimakterik davrda estrogen darajasining pasayishi arterial gipertoniya va yurak ritmi buzilishlari xavfini oshiradi (1). Arterial gipertoniya postmenopauzal ayollarda atrial fibrillyatsiyaning eng muhim modifikatsiyalanuvchi xavf omillaridan biri hisoblanadi(2). Erta menopauza, metabolik sindrom va psixo-emosional stress aritmiya rivojlanish ehtimolini yanada kuchaytiradi(3).

**Kalit so'zlar:** klimakterik sindrom, arterial gipertoniya, atrial fibrillyatsiya, aritmiya, menopauza, xavf omillari, dislipidemiya.

Klimakterik davrda estrogen sekresiyasining pasayishi ayollarda metabolik jarayonlar buzilishi, endotelial disfunktsiya va arterial bosimning oshishiga olib keladi, bu esa yurak-qon tomir kasalliklari xavfini oshiradi(1). Estrogen yetishmovchiligi natijasida qon tomir tonusi, renin–angiotenzin tizimining faolligi va tuz-suv muvozanati o'zgarib, gipertoniya rivojlanishi uchun sharoit yaratiladi(2). Arterial gipertoniya esa postmenopauzal ayollarda aritmiyaning, ayniqsa atrial fibrillyatsiyaning shakllanishida asosiy xavf omili bo'lib, yuqori sistolik bosim atrial miokardning elektr va struktur remodelirovkasiga olib keladi. Erta menopauza (<45 yosh) arterial gipertoniya va atrial fibrillyatsiya xavfini ishonchli ravishda oshirishi ko'plab yirik meta-tahlillarda tasdiqlangan (3). Bundan tashqari, klimakterik sindrom bilan kechayotgan ayollarda dislipidemiya, insulinrezistentlik, tana vaznining ortishi, uyqusizlik, vegetativ disbalans va stress kabi omillar yurak ritmi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi(2). Klinik kuzatuvlarda bunday bemorlarda supraventrikulyar ekstrasistoliya, paroksizmal taxiaritmiyalar hamda atrial fibrillyatsiya ko'proq uchrashi qayd etilgan (4). Aritmiyani o'z vaqtida aniqlash uchun EKG, 24 soatlik Holter monitoringi, arterial bosim monitoringi, lipid profili, glikemiya va tana massasi indeksini baholash tavsiya etiladi(2).

Klimakterik sindrom fonida rivojlangan arterial gipertoniya aritmiya, ayniqsa atrial fibrillyatsiya xavfini sezilarli oshiradi. Gormonal o'zgarishlar, metabolik buzilishlar va psixo-emosional omillar bu jarayonni tezlashtiradi. Xavf omillarini erta aniqlash, arterial bosimni qat'iy nazorat qilish va yurak ritmini muntazam monitoring qilish aritmiyalarni oldini olish va ularning og'ir klinik oqibatlarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mendelson ME., Karas RH. Menopause and cardiovascular disease: the evidence. PubMed, 2007.
2. Park J., Lee SR., Choi EK. Age at menopause and risk of heart failure and atrial fibrillation. Journal of Cardiology, 2023. Regitz-Zagrosek V. Update on Management of Cardiovascular Disease in Women. Journal of Clinical Medicine, 2022.
3. .Regitz-Zagrosek V. Update on Management of Cardiovascular Disease in Women. Journal of Clinical Medicine, 2022.
4. Zhu D., Chung HF., Pandeya N. Early menopause and risk of arterial hypertension: Systematic review and meta-analysis. Maturitas, 2020.